



## ISLOMIY IJARA TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Kurbanov Alisher Azamatovich**

*Bank moliya akademiyasi Moliya va moliyalarni boshqarish fakulteti 22-17 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada islomiy ijara tashkil qilishning nazariy asoslari, tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo'llash tamoyillari haqida ma'lumotlar berilib, shuningdek islomiy va an'anaviy lizingning bir biridan farq jihatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda islom moliyasi, xususan, ijara shartnomasining amaliyoti hamda islom moliyasining ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlariga doir masalalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *an'anaviy lizing, me'yoriy-huquqiy baza, IsTB, XSRIK, Taiba Lizing, investitsiya loyihalari.*

### KIRISH

Islom moliyasining yuridik va jismoniy shaxslar uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy amaliyotlari uchun instrumentlari mavjud bo'lib, an'anaviy moliya vositalarining barcha muqobil mahsulotlari bor. Shuningdek, islom moliyasidan foydalanishning kengayib borishini yana bir qator sabab va omillar bilan bog'lash mumkin: -dunyo bo'ylab Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ya'ni musulmonlar sonining oshishi; -adolat me'zonlariga asoslanadigan, ribodan holi, ijtimoiy xususiyatdagi adolatli investitsiyalarga qiziqishning yildan yilga ortib borishi; -mamlakatlar tomonidan islom moliyasi uchun qonunchilikni ishlab chiqilishi va qabul qilishning ortishi. Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi (Gait va Uortington, 2008). Islomda moliyalashtirish tushunchasi an'anaviy yoki "G'arb moliyasi"dan farq qiladi. Islomiy moliya tizimini an'anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi (Miraxorva Iqbol, 2011).

### ASOSIY QISM:

Davlatimiz rahbari SH. Mirziyoyev IHT TIV kengashi 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqlarida "Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi." -deya takidlab o'tgan edilar.

Islomiy moliya institutlari o'z mijozlariga odatda ikki guruhga bo'linadigan turli xil moliyalashtirish mexanizmlarini taklif qilishadi:

1) foyda va zararni taqsimlashga asoslangan shartnomalar yoki investitsiyalarni moliyalashtirish usullari (muzoraba, mushoraka);



2) qarz asosida moliyalashtirishga (murobaha, ijara, salom, istisno va sukuk) asoslangan shartnomalar.

## **TADVIQOT METODOLOGIYASI**

Ijara - arabcha “ajr” soʻzidan yasalgan ismdir. “Ajr” soʻzining esa lugʻatda Ikki xil maʼnosi bor:

1. Biron ish uchun ujra, yaʼni haq toʻlash va kira maʼnosida.
2. Siniq narsani tuzatmoq, yordam bermoq.

Ijara – islomiy fiqhga oid atama bulib, lugatda «biror narsani ijaraga (malum evazga vaqtincha foydalanishga) berishga» aytiladi. Istilohda esa «ijara» atamasi ikki turli manolarni ifodalashda qullaniladi. Birinchisi, kursatilgan khizmatga tulanagan haq evaziga biror kishining khizmatlaridan foydalanish (ishga yollash)ni bildiradi. Ish beruvchi odam «mustajir», ishga yollangan odam esa «ajir» deb aytiladi. Demak, A odam B odamni idorasiga menejer (boshqaruvchi) yoki oylik maosh oluvchi khodim sifatida ishga olsa, A mustajir, B esa ajir buladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qogʻozlarni joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori loyihasi eʼlon qilindi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda ham bu soha boʻyicha tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan olim va izlanuvchilarning yildan-yilga koʻpayotgani tahsinga sazovordir. Ular oʻzlarining izlanishlarining natijalarini doimo eʼlon qilib borishi bu sohaga qiziqish bildirayotgan yangi oʻquvchilar uchun ayni muddaodir.

Jumladan, S. Abrorov (2020) “Oʻzbekistonda sukuk islomiy qimmatli qogʻozini joriy etish istiqbollari” ga doir tadqiqot ishida Oʻzbekistonda sukukni joriy etishga doir oʻzining taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqan. Xususan, ijara sukukuni chiqarshning konseptual asoslarini koʻrsatib bergan. Shuningdek, oʻzimizning (Zayniddinov, 2023). “Oʻzbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish” nomli avvalgi maqolamizda ijara shartnomasidan davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarini moliyalashtirishda foydalanish imkoniyatlarini Oʻzbekiston misolida koʻrib chiqqan edik.

## **TAHLIL VA NATIJALAR:**

Jamiyat, anʼanaviy bank tizimida amal qiluvchi mijoz/omonatchi – bank, qarz oluvchi – bank kabi, asosan bank manfaatini koʻzlovchi moliyaviy munosabatlar, hamda islom bankchiligidagi ikki tomonning (yaʼni mijoz va bankning) birgalikdagi manfaatini inobatga oluvchi “mushoraka” (loyihalarni sarmoyaviy sherikchilik asosida moliyalashtirish), “murobaha” (oldi-sotdi shartnomasi orqali moliyalashtirish),

---

<sup>1</sup> suquq ijara qimmatli qogʻozlari (suquq al ijara) – muomala muddati avvaldan belgilanib, maxsus moliya kompaniyasi tomonidan islom moliyalashtirish tamoyillariga asosan chiqarilgan qimmatli qogʻozlar boʻlib, ularning egalari ijara shartnomasi (moliyaviy lizing) boʻyicha daromad olish huquqiga ega boʻlishadi;



“mudoraba” (loyihalarni ishonch asosidagi hamkorlik doirasida moliyalashtirish) “ijara” (ijara/lizing shartnomasi asosida moliyalashtirish), “istisna” (ishlab chiqarish sohasi loyihalarini moliyalashtirishga asoslangan shartnoma), “salam” (asosan qishloq xo’jaligida qo’llaniladigan, oldindan moliyalashtirishni ko’zda tutuvchi shartnoma), “sukuk” (qimmatli qog’ozlar yordamida moliyalashtirish) kabi iqtisodiy-moliyaviy hamkorlik munosabatlari o’rtasidagi farqni anglashi va ikki tomon uchun ham birdek manfaatli bo’lgan bunday tizim, zamonaviy bank-moliya sohasini rivojlanishiga ham yordam berishi mukinligiga ishonch hosil qilishi kerak

## **XULOSA**

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Xulosa qilib aytganda, Islomiy moliya institutlari shariat me’yorlariga rioya qilishlari shart va shunga muvofiq ular o’z faoliyatida qarzlarni uchun foizlar undirishdan bosh tortadilar, shartnoma mavzusida juda ko’p tushunish qiyin bo’lgan bitimlar tuzadilar, moliya vositalari bilan operatsiyalar o’tkazmaydilar (opsionlar, forvardlar, fyucherslar va boshqa qimmatli qog’ozlar), an’anaviy sug’urtadan foydalanish va an’anaviy obligatsiyalarni chiqarish shular jumlasidan. Yuqorida takidlaganimizdek Islomiy moliyaviy shartnomalarning ikki guruhi mavjud bo’lib. Birinchisi, foyda va zararni ajratish printsipligiga asoslanadi ikkinchisi esa qarz bilan moliyalashtirishga asoslanadi. Fikrimizcha, bu shartnomalardan birinchisi foyda va zararni ajratish printsipligiga asoslangan shartnomalar eng keng tarqalgan bo’lishi kerak. Shubhasiz, qarz bilan moliyalashtirishga asoslangan mexanizmlarni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar mavjud, ayniqsa, g’ayri musulmon mamlakatlarda, ba’zida bunday moliyalashtirish usullarining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan qonunchilik doirasida ishlashga majbur bo’linishi buning yaqqol dalilidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Samariddin ELMIRZAYEV “Korporativ Moliya” Toshkent-2015
2. Mirakhor, A. and Iqbal, Z. (2011). An Introduction To Islamic Finance : Theory and Practice. Singapore: John Wiley & Sons. Muhammad Taqi Usmani, (2011), An Introduction to Islamic Finance. -169 pages;
3. Saydirasulov L.A., (2023), Yangi O’zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining imkoniyatlari, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal, 2023-yil, sentabr , 5-son, 120- 124-sahifalar.
4. Ijara, ijara muntahiyati: №9 shariat standarti: ingliz tilidan tarjima/ Islom moliyaviy muassasalari bugalteriya hisobi va audit tashkiloti(AAOIFI); R.I. Baishev va boshqalarumumiy tahriri ostida – Moskva: «Исламская книга» nashriyoti, 2011.
5. Murobaha: №8 shariat standarti: ingliz tilidan tarjima/ Islom moliyaviy muassasalari bugalteriya hisobi va audit tashkiloti(AAOIFI); R.I. Baishev va boshqalarumumiy tahriri ostida – Moskva: «Исламская книга» nashriyoti, 2010.



## FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-823344>
2. <https://uz.delachieve.com/uzoq-muddatli-investitsiyalar-haqiqiy-qiymati-buxgalteriya-bir-mulohaza/>
3. <https://xs.uz/uz/post/investitsiyalar-va-investitsiya-faoliyati-togrisida>
4. <https://e-library.namdu.uz/65%20%D0%98%D0%BA%D1%82%D0%B8%D1%81%D0%BE%D0%B4/Muratov%20R.S.%20Korxon%C3%B4%20iqtisodiyoti.pdf>
5. <http://genderi.org/anvarov-azizbekning-investitsiyalar-tahlili-fanidan-tayyorlagan.html?page=2>
6. [www.e-itt.uz](http://www.e-itt.uz)
7. <https://daryo.uz/2020/10/14/ozbekistonda-islom-moliyalashtirish-tamoyillari-asosida-qimmatli-qogozlar-joriy-etiladi>